



**НАУЧНЫЙ  
ИМПУЛЬС**

ЦЕНТР НАУЧНОЙ  
ПОДДЕРЖКИ

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ**

# **НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС**



**Последние  
новости**

**Последние  
образование**

**Последние  
исследование**

**И НОВЫЕ НАУКИ**



*Международный современный научно-практический журнал*

**Научный импульс**

№ 19 (100)  
Марта 2024 г.

**Часть 1**

Издаётся с августа 2022 года

Москва 2024

Усмонова Мехрикамом Одилжоновна	
<b>MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI</b> Yodgorova Ma'mura Orifovna Ergashev Behruz Bahodirovich	<b>61</b>
<b>РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ ЖИҲАТЛАРИ</b> Бўронов Дилшод	<b>63</b>
<b>ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШ – УСТУВОР ВАЗИФА</b> Шавкатов Жавохир Илмий рахбар Жумаева Зулфия	<b>67</b>
<b>HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINI MUTAXASSISLIK FANI SIFATIDA O'QITISH METODIKASI</b> Xujaqulov Abdulaziz Hakim o'g'li	<b>71</b>
<b>БЕЗ ИСТОРИИ - НЕТ БУДУЩЕГО !</b> Адхамов Рустам Равшанович Боймуродова Гуласал Элмурод кизи	<b>75</b>
<b>SUVOQ MANIPULYATOR ISHINI MODELLASHTIRISH, BOSHQARISH VA ULARNI QO'LLANILISHI VAZIFALARI</b> Safarov I.U Kushakov M.M Omonov M.B	<b>78</b>
<b>TASHKILOTLARDA ISO 45001:2018 - SOG'LIQNI MUHOFAZA QILISH VA MEHNAT XAVFSIZLIGI BOSHQARUV TIZIMINI JORIY QILISHDAGI AFZALLIKLAR</b> Valijonov Azizullo Akmaljon o'g'li	<b>83</b>
<b>РОЛЬ ЭМОЦИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ</b> Г. Кодирова	<b>86</b>
<b>CLINICAL SEMIOTICS OF DAMAGE TO THE CARDIOVASCULAR SYSTEM IN IRON DEFICIENCY ANEMIA OF THE II DEGREE IN STUDENTS OF SAMSMU</b> Vakhidova Adolat Mamatkulovna Meilibayeva Zhazira Urazbaeva Oblokulova Feruza Alikulovna Nazhmiddinova Sevinch Naim kizi	<b>90</b>
<b>THE IMPORTANCE OF ORTHOPHOTOPLANS IN LAND CADASTRAL MANAGEMENT IN FOREIGN COUNTRIES</b> Pirimov Jonibek Jumamuradovich	<b>93</b>
<b>"STOL TENNIS BILAN SHUG'ULLANUVCHILARNI O'YIN JARAYONIDA HARAKATLAR BIOMEKANIKA SISING TUZULISHI"</b>	<b>98</b>

## HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINI MUTAXASSISLIK FANI SIFATIDA O‘QITISH METODIKASI

**Xujaqulov Abdulaziz Xakim o‘g‘li**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchi*

*E-mail: kundalikkun@mail.ru*

*Tel: +99890 650 60 70*

**Annatsiya:** *Maqolada, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi, xususan metodikaga katta e‘tibor berilgan bo‘lib, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi bo‘lajak mutaxassislarni yuqori kasbiy tayyorgarligini ta‘minlash uchun butun e‘tiborini ta‘limning qonuniyatlari va tamoyillari, uning shakl va metodlarini asoslashga qaratilishi, bundan tashqari mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi doimiy ravishda mutaxassislik fanlarni o‘qitishning qonuniyatlarini ochish va asoslab berishga hamda uning asosida ta‘lim jarayonini boshqarish yo‘llarini izlab topilishi, maxsus fanlarini o‘qitishda mutaxassislik fanlarining vazifalari bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *metodikasi, o‘qitish, didaktika, ta‘lim oluvchi, mutaxassislik fanlari, kasbiy tayyorgarlik.*

### KIRISH

Metodika–bu xususiy didaktika, ya‘ni biror bir fanni o‘qitish nazariyasi. O‘zaro ta‘sir etishning turli shakllarini o‘rganish asosida biror fanni o‘qitish va o‘rganish yo‘llarini o‘quv fani metodikasi ishlab chiqadi va ta‘lim oluvchilarga ta‘sir etishning aniq tizimini o‘qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o‘quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta‘lim mazmunida o‘z aksini topadi hamda ta‘lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O‘quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog‘langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi. Tarbiya tamoyillariga asoslanib esa, metodika o‘quv fani maqsadi, uning ta‘lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Umumiy ma‘noda “metodika” tushunchasi ma‘lum bir ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan metod va usullar yig‘indisidir. Ko‘pgina izohli lug‘atlarda ham “Metodika – qat‘iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi”ni ifoda etishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liklikda qo‘llanilib, ma‘lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi.


Pedagog olim T.A. Ilinaning fikricha, didaktika turli ta‘lim muassalarida xilma-xil o‘quv fanlarini amalga oshiriladigan o‘quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiyki, har bir o‘quv fani o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlariga ega, o‘zining alohida metodlari va ta‘limni tashkil etish shakllarini talab etadi.

Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi metodika ma‘lum bir maxsus vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita

va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”. G.M.Kodjaspirova, A. Yu. Kodjaspirov-larning fikricha, “O’qitish metodikasi maxsus faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”.

Mazkur masalalar bilan xususiy metodika, yoki alohida o’quv fanlarini o’qitish metodikasi (tarix, matematika, pedagogika, psixologiya va boshqalar) shug’ullanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi – bu nazariya va amaliyotning umumlashgan ko’rinishidir. U o’qituvchi va ta’lim oluvchilar birgalikdagi faoliyati, ta’lim mazmuni, shakl va metodlari birligi sifatida pedagogik fanlarni o’qitish jarayonini tadqiq etadi. Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi bo’lajak mutaxassislarni yuqori kasbiy tayyorgarligini ta’minlash uchun butun e’tiborini ta’limning qonuniyatlari va tamoyillari, uning shakl va metodlarini asoslashga qaratadi. Bundan tashqari mutaxassislik fanlarni o’qitish metodikasi doimiy ravishda mutaxassislik fanlarni o’qitishning qonuniyatlarini ochish va asoslab berishga hamda uning asosida ta’lim jarayonini boshqarish yo’llarini izlab topadi. Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi predmetini bunday tushunishdan kelib chiqib aytilish mumkinki, u boshqa fanlarni o’qitish metodikasidan farqli ravishda ikki – umumiy va xususiy qismdan tashkil topadi.



### 1-chizma. Mutaxassislik fanlarini o’qitish tizimi

Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi o’quv fani sifatida “Ta’lim to’g’risidagi”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida tubdan yangilandi. Ana shu asosdan kelib chiqib, maxsus fanlarini o’qitishda mutaxassislik fanlarining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O’qitish jarayonini samarali tashkil etish natijasida har tomonlama rivojlangan, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirish.
2. Har tomonlama rivojlangan, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirishning markazida o’qituvchi turadi. Shuning uchun bo’lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish – metodikaning muhim vazifasidir.
3. Mutaxassislik fanlarini o’qitishda bo’lajak mutaxassislarga talabalarning fan asoslari bo’yicha bilimlarini yangi sifat darajasiga, kasbga yo’naltira olishlariga, g’oyaviy-siyosiy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyani yuksak darajasiga erishish yo’llarini ko’rsatib berishi zarur.

4. Talabalarni ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish uchun mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi pedagogni ta'limning shakl, metod va vositalarini tanlab olish va tizimlashtirishga o'rgatadi.

5. Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarda kasbiy-pedagogik yo'nalganlikni shakllantirish uchun katta ijobiy tajribaga ega. Bunda pedagogik fanlarni o'ziga xos o'rni bor. To'plangan tajribalarni jamlash, tizimlashtirish, kelajakda qo'llash uchun tavsiyalar berish ham pedagogik fanlarni o'qitishning vazifalaridan biridir.

O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

- 1) hayot bilan uyg'unlik;
- 2) qayta ishlab chiqishga yo'nalganlik;
- 3) aniqlik;
- 4) rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik;
- 5) asoslanganlik;
- 6) natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o'qitish metodikasi o'zida:

- ta'limning maqsad va vazifalarini – ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;
- ta'limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta'lim mazmunini;
- ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;
- ta'limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o'quv vositalari;
- o'qitish natijasini aks ettiradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, ta'lim texnologiyasi o'qitish metodikasi asosida qurilib, uning qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalariga asoslangan holda, kutiladigan natijalarga asoslangan holda o'qitish jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, loyihaga muvofiq o'qituvchi va talaba faoliyatini aniq belgilangan ketma-ketlikda amalga oshirishning samarali texnikasidir.

#### ADABIYOTLAR:

1. J.Hasanboev va boshq. Pedagogika / O'quv qo'll. – Toshkent: “Fan”, 2006.
2. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika / O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
3. Sultanova G.A. Pedagogik mahorat / O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: 2005.
4. Abdulaziz Hakim o'g'li Xujaqulov. Muhandislik ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy tanlovga ta'sir etuvchi omillar. Science and Education. 2023.- Страницы 493-496
5. А.Х.Хужакулов.Значение инновационных технологий в организации самостоятельной работы студентов в системе высшего образования. Вестник науки. 2023.- Страницы 113-117

6. Xujaqulov Abdulaziz Hakim o'g'li. Muhandislik yo'nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar. Prospects and main trends in modern science 2023.- Страницы 60-63
7. Xujaqulov Abdulaziz Hakim o'g'li. Umumkasbiy fanlarni o'qitish orqali talabalar tomonidan shakllanadigan tadqiqotchilik qobiliyatlari. 2023.- Страницы 321-326
8. Ж.У.Шоназаров, А.Х.Хужакулов. Творческая и инновационная деятельность будущего преподавателя и способы достижения профессиональных навыков. 2020.- Страницы 55-60
9. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich, Manzarov Yusufjon Khurramovich, Keldiyarova Malika, Hudjakulov Abdulaziz Hakim Ugli. Modern lectures and methods of organizing problematic lectures. Проблемы науки 2020.- Страницы 46-49
10. Октябрь Дусткабилевич Рахимов, Абдулазиз Хаким угли Хужакулов, Бахром Хусанович Шомуротов, Дилрабо Октябровна Рахимова. Неиспользуемые возможности: дистанционного образования в Узбекистане. Научный журнал 2021.- Страницы 72-75